

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB QUVVATLASH VA IJTIMOY-IQTISODIY FAROVONLIK

Mustafoqulova Dilnavoz

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Insitituti 4-kurs talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda uning jamiyat farovonligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy omillari, jumladan, imtiyozli kreditlar, mikromoliyalashtirish va biznes-ta’lim tizimining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosati va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida mavjud tendensiyalar o‘rganilgan. Statistik ma’lumotlar asosida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki tahlil qilinib, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta’siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va gender tengligini ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, bandlik, mikromoliyalashtirish, biznes-ta’lim, gender tengligi, iqtisodiy rivojlanish, davlat siyosati, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlik*

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida barqaror ijtimoiy rivojlanish va farovon jamiyatni shakllantirishda ayollar tadbirkorligining o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki gender tengligini ta’minlash bilan birga, milliy iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlari ayollarning biznesdagi faolligi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Ayollar tadbirkorligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, u yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshiradi. Ikkinchidan, ayollar tomonidan boshqariladigan bizneslar xizmat va mahsulotlar turini kengaytirib, ichki bozorni rivojlantiradi. Uchinchidan, ayollar daromadining ortishi oilaviy farovonlikni yaxshilashga hamda iqtisodiy faollikni kuchaytirishga olib keladi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini samarali rivojlantirish uchun moliyaviy, huquqiy va ta’limiy choralarni uyg‘un holda qo‘llash zarur. Xususan, mikromoliyalashtirish tizimlarini rivojlantirish, imtiyozli kreditlar ajratish va maxsus biznes-ta’lim dasturlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ham

so‘nggi yillarda ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmogda. Ushbu tashabbuslar orqali ayollarga moliyaviy resurslar, bilim va ko‘nikmalar berilib, ularning iqtisodiy faolligi oshirilmogda. Natijada nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy himoya va jamiyat farovonligi ham mustahkamlanmogda. Shuningdek, davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan hujjatlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ularning asosiy yo‘nalishlari bandlikni ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishdan iborat.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan mazkur farmon mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqur bosqichini ochdi. Hujjatda aholining bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanib, mikro moliyalashtirish xizmatlarini kengaytirish vazifasi qo‘yildi.⁸³ Prezidentimiz Mirziyoyev tomonidan 2024 va 2025 yillarda bir qator farmonlar qabul qilindi. Ularda kambag‘allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan:

- *“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* (PQ-347, 04.10.2024).
- *“Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”* (PF-143, 23.09.2024).
- *“Aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* (PQ-12, 17.01.2025).
- *“Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish”* (PF-136, 11.09.2024).

Ushbu hujjatlar bandlikni ta‘minlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. Prezident Mirziyoyev 2024-yilda mahallalar darajasida kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha milliy kampaniyani e‘lon qildi. Dastur asosida 2019-2023 yillar davomida kambag‘allik darajasi 23% dan 11% gacha qisqardi va seyregan holatlarda turli imtiyozlar — kreditlar, subsidiyalar, bandlik yaratish tadbirlari joriy etildi.⁸⁴ Prezidentning 2025 yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha yig‘ilishlarda ta‘kidlanganidek, 5,2 million kishi band qilinishi va 1,5 million kishi kambag‘allikdan chiqarilishi rejalashtirilgan. Shu maqsadda mahalla tinkarlari va mahalla banklar bilan birgalikda kredit resurslari ajratilib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan hujjatlar mamlakatda

⁸³ Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon.

⁸⁴ Mahalla tizimi orqali kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha yangi yondashuvlar.

kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani ta‘minlash va bandlikni oshirish bo‘yicha kompleks yondashuvni shakllantirgan. Ular mikro moliyalashtirish, kredit va subsidiya tizimlarini rivojlantirish, mahallalar tizimi orqali manzilli yordam ko‘rsatish, tadbirkorlikni kengaytirish hamda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Adabiyotlar sharhi

Ayollar tadbirkorligi bugungi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Mahalliy olimlar fikricha, ayollarga biznes yuritish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning oilaviy daromadlarini oshirish, oilaviy byudjetni mustahkamlash va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan boshqariladigan kichik bizneslar ko‘pincha mahalliy bozorlarda xizmatlar va mahsulotlar spektrini kengaytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va o‘z hududi uchun barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantiradi. Misol uchun, ayollar tomonidan yo‘lga qo‘yilgan savdo, sataroshlik, dizayn va qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik loyihalari ko‘p hollarda ustuvor iste‘mol ehtiyojlarini qondiradi hamda oilalar daromadiga sezilarli hissa qo‘shadi. Shuning uchun davlat dasturlarida ayollarga imtiyozli kreditlar, biznes-ta‘lim va mentorlik dasturlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilmoqda. Bu yordam ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qiladi hamda ijtimoiy tenglikni yanada kuchaytiradi.⁸⁵

Microfinance tizimi ayollar tadbirkorligi uchun muhim vosita bo‘lib, u global miqyosda kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatning iqtisodiy inklyuziyasini ta‘minlashda katta rol o‘ynaydi. Ayollar odatda iqtisodiy resurslarga cheklangan kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi tufayli an‘anaviy bank kreditlari va moliyaviy xizmatlardan ko‘pincha mahrum bo‘ladi. Shu sababli mikromoliyaviy institutlar ayollarga kichik kreditlar, saqlash hisobi hamda moliyaviy maslahat kabi xizmatlarni yetkazib beradi. Bu, o‘z navbatida, ularni biznes ochishga undaydi va oilaviy daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Shuningdek, kitobda aytilishicha, ayollar mikro moliyalashtirish orqali o‘z biznesini yo‘lga qo‘yibgina qolmay, balki ijtimoiy jamiyatda ham yuqori hurmat va obro‘ga erishadi. Bu ijtimoiy kapital va tarmoqlar orqali o‘zaro yordamni kuchaytiradi va jamiyatning barqaror farovonligiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, mikro moliyaviy dasturlar muvaffaqiyati ayollarning moliyaviy bilim darajasi va biznesning bozor sharoitiga moslashuvchanligiga bog‘liq.⁸⁶

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy mustaqillikka erishish qonuniy va amaliy asoslarga egadir. Ayollar tadbirkorligi jamiyatning

⁸⁵ Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

⁸⁶ Engendering Microfinance“ (Brush & Manhart)

umumiy farovonligini oshiradi, chunki ayollar topgan daromadlarini ko‘proq oila farovonligi hamda bolalar ta‘limi va sog‘lig‘iga yo‘naltiradi. Kabeerning fikricha, mikro moliyaviylashtirishning ijtimoiy ta‘siri faqat moliyaviy resurslarni taqdim etishdan iborat emas, balki ayollarga iqtisodiy faoliyatda qatnashish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kapital va salohiyatni yaratishdan ham iborat. Bu esa ayollar orasida o‘zini o‘zi hurmat qilish hissi va o‘zgarishlarni amalga oshira olish qobiliyatini oshiradi. Kitobda aytilishicha, ayollar tadbirkorligi uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar: moliyaviy savodxonlik kurslari, biznes rejalashtirish bo‘yicha treninglar va ijtimoiy tarmoqlar shakllantirish. Bu yondashuvlar ayollarni faqat kredit bilan ta‘minlab qolmay, balki ularni barqaror biznes yuritish ko‘nikmalari bilan qurollantiradi.⁸⁷

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim vositasidir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, biznes-ta‘lim va mentorlik dasturlarini joriy etish ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi, oilaviy daromad manbalarini kengaytiradi va mahalliy bozorlarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro adabiyotlar ham ayollarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishda mikro moliyalashtirishning samaradorligini tasdiqlaydi. Brush & Manhartning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, mikro moliyaviy institutlar ayollarga kichik kreditlar va moliyaviy maslahatlar taqdim etib, ularni biznes ochishga undaydi va oilaviy daromadlarni diversifikatsiya qiladi. Kabeer esa ayollar tadbirkorligi nafaqat moliyaviy resurslarni oshirish, balki ijtimoiy kapital va o‘zini-o‘zi hurmat qilish hissinin shakllantirish orqali jamiyat farovonligini kuchaytirishini ta‘kidlaydi. Bu nafaqat ayollarning shaxsiy rivojlanishi, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka ta‘sirini o‘rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘un holda qo‘llanildi. Avvalo, mavzu doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro institutlarning ma‘lumotlari asosida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri o‘rganildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan farmon va qarorlar mazmuni tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati baholandi. Tadqiqotda statistik tahlil usulidan ham foydalanildi. Rasmiy manbalar asosida ayollar bandligi, mehnat bozoridagi ishtiroki va

⁸⁷ „Gender & Social Inclusion: An Analytical Framework for Microfinance and Women’s Empowerment“ (Kabeer)

tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatkichlari o‘rganildi hamda ular o‘zaro taqqoslandi. Ushbu ma’lumotlar orqali mavjud tendensiyalar aniqlanib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilindi. Bundan tashqari, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida milliy va xalqaro tajriba o‘rtasidagi farqlar va o‘xshash jihatlar aniqlab berildi. Tahlil natijalari asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvlar va mexanizmlar ajratib ko‘rsatildi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchligini ta’minlash, muammoni har tomonlama yoritish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ayollar bandlik (mehnat bozorida ishtirok) ko‘rsatkichlari

Yil	Ayollar mehnat bozorida ishtiroki (%)
2020	39.90%
2021	39.70%
2022	39.50%
2023	39.60%
2024	39.40%

Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozorida ishtirok darajasi deyarli barqaror holatda saqlanib qolgan. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 39,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 39,4 foizga tenglashgan. Ushbu davrda umumiy pasayish atigi 0,5 foiz punktni tashkil etadi, bu esa keskin o‘zgarishlar kuzatilmaganini ko‘rsatadi. 2021 va 2022-yillarda ko‘rsatkichning asta-sekin kamayib borishi pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan izohlanishi mumkin. Bu davrda ayrim xizmat ko‘rsatish sohalarida bandlikning qisqarishi ayollarning mehnat bozorida faolligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. 2023-yilda esa kichik o‘shish kuzatiladi (39,6%). Bu holat iqtisodiy faollikning tiklanishi, xususan kichik biznes va xizmatlar sektorining qayta jonlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ham ayollarning iqtisodiy faoliyatga jalb etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. 2024-yilda ko‘rsatkich yana biroz pasayib, 39,4 foizni tashkil etgan. Bu o‘zgarish katta tafovutni anglatmasa-da, mehnat bozorida ayollar ishtirokini oshirish borasida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.



Mazkur chizma ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka ta’sirini bosqichma-bosqich ifodalaydi. Unda ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish jarayoni hamda uning natijalari tizimli ravishda yoritilgan. Unda, avvalo, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida imtiyozli kreditlar, biznes-ta’lim va mikromoliyalashtirish vositalari ko‘rsatilgan. Ushbu mexanizmlar ayollarga zarur moliyaviy resurslar va bilimlarni taqdim etib, ularning mustaqil biznes faoliyatini boshlashiga zamin yaratadi. Mazkur qo‘llab-quvvatlash choralarining natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ayollarning kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Bu jarayon iqtisodiy faollikning oshishiga olib kelib, aholi daromadlari ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayollarning iqtisodiy faoliyatga keng jalb etilishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, oilaviy daromadlarning oshishiga hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan imtiyozli kreditlar ajratish, biznes-ta’lim dasturlarini rivojlantirish va mikromoliyalashtirish tizimini kengaytirish ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi hali ham nisbatan past darajada saqlanib qolayotganligi ushbu sohada qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki ijtimoiy inklyuziya va gender tengligini ta’minlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish, kasbiy tayyorgarlikni oshirish va

qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani rivojlantirish bu borada muhim ahamiyatga ega. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks va tizimli yondashuvni davom ettirish mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon. 2017-yil 7-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–347, 2024-yil 4-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”. PF–143, 2024-yil 23-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–12, 2025-yil 17-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. “Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”. PF–136, 2024-yil 11-sentabr.
6. World Bank. Gender Data Portal: Uzbekistan. – <https://genderdata.worldbank.org>
7. United Nations Development Programme (UNDP). Ayollar tadbirkorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha hisobotlar.
8. Brush, Candida G., Manhart, Rachel. Engendering Microfinance.
9. Kabeer, Naila. Gender & Social Inclusion: An Analytical Framework for Microfinance and Women’s Empowerment.
10. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Aholi bandligi va mehnat bozori bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. – <https://stat.uz>